

SHAXS PSIXOLOGIYASIGA TURLI YONDASHUVLAR

*Dexkonova Marg`uba Erkinovna
Turg'unpo`latova Musharraf Xusniddin qizi
Namangan davlat universiteti psixologiya
kafedrasи o'qituvchilari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs tushunchasi, shaxs rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillar, shaxs rivojlanishi to`g`risidagi olimlarning mulohazalari, shaxs rivojlanishi muammolari haqida fikr yuritiladi

Kalit so‘zlar: shaxs, fizionomiya, ta’lim-tarbiya, “egizaklar”metodi”, psixoanalitik yo’nalish, “Ekzopsixika”, nomutanosib shaxs .

KIRISH

Shaxs psixologiyasi barcha davrlarda insonni o’rganadigan fanlarda diqqat markazidagi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Xususan, psixologiyada shaxs-alohida individ , mohiyatan yaxlit ijtimoiy axloqiy olam . U o’zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy gumanitar fanlarda o’z yo’nalishi , tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etadi. U o’ta murakkab , ziddiyatli, qarama – qarshi, o’zini o’zi inkor etadigan mavjudot sifatida biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy, axloqiy, va estetik aqldorlik, tafakkur obyekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig’i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin. Shaxsning shakllanish omillari ko’p va xilma xildir. Masalan, genetik (nasliy), biologiktabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o’z turdoshlari bilan munosabatlarda boshqalar shaxsning genetik jihatni uning nasliy asosi, ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya, fe’l atvor bilan, biofiziologik jihatni esa yashash uchun quvvat olish, ovqatlanish va nasl qoldirish kabilardir. Jitmoiy munosabatlarga kirishuvchi, ijtimoiy taraqqiyotda ishtirok etuvchi odamgina shaxs deyiladi. Shaxsning eng asosiy belgisi - uning ongli faoliyat egasi ekanligidir. Ma’lumki kishi ongi faqat jamiyatda, boshqalar bilan o’zaro munosabatda, til yordamida ijtimoiy tajribani o’zlashtirishda shakllanadi. Binobarin shaxs ham faqat jamiyatdagina shaxsga aylanishi mumkin. Shaxs tushunchasi psixologiyada eng ko’p qo’llanadigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiyada o’rganiladigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi.

Shaxs mohiyatiga ko’ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo’lgan, ijtimoiy tarixiy an’ana, turmush tarsi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakili.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o'zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o'rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiy ma'naviy me'yorlar orqali tushunilgan va axloqiy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Shu boisdan Zardusht insonlarning yomonlik qilishga bo'lgan ehtiyojini (ijobiy bo'limgan ma'naviy ehtiyoj) boshqarish kerakligini aytib, fikr bilan so'z, so'z bilan amal, amal bilan yaxshilik qilish lozimligini uqtirgan. Yomonlik qilish ehtiyoji yaxshi boshqariladigan shaxslarda odamlarga bo'lgan munosabat tez o'zgaruvchan bo'lmaydi. Jamiyatda bu ko'proq yuqori tabaqadagi kishilarda namoyon bo'ladi. Barkamol shaxsni shakllantirish barcha davrlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etgan. Shaxs kamolotiga nisbatan buddizm «dunyo azobi» kontseptsiyasini ishlab chiqqan. Undan qutilish yo'li (jumladan, Buddoning to'rt haqiqati) inson kamolotini ta'minlagan. Islomda «gunoh» tushunchasi va undan tiyilish shaxsni kamolot sari olib boradi. Har ikkala yondashuvda ham markaz («azob-uqubat», «gunoh») dan qochma harakat, ezgulikka tomon intilishda o'z aksini topgan. Psixologiya ilmini namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodni ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anlash uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobi, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go'zal va farovon bo'lishiga ehtiyoj sezadi. Barcha qarashlardan umumiyligi bo'lgan qarash shu bo'lganki, odamning, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini bilish zarur. G. Leynits (1646-1716) Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, hattoki eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar, yoki tug'ma asoratlar bo'ladiki, ular layoqatlardek, inson taqdirida muhim rol o'ynaydi. Bu ikkala yirik yo'nalish o'rtasida tortishuvlarga chek qo'yish maqsadida F. Galton qator eksperimental tadqiqotlar o'tkazib, har bir individga xos differensial xususiytlar mavjudligini "egizaklar" metodi yordamida asoslashga harakat qildi. Yigirmanchi asr mobaynida jahon psixologiya fanining amaliyotda uchta asosiy yo'nalish paydo bo'ldi, keyinchalik uning ichida eng muhim zamonaviy shaxslar nazariyasi shakllandi. Psixologiyada zamonaviy shaxslar nazariyasi shakllandi. Psixologiyada shaxsning asosoiy nazariyalari qisqacha quyida keltirilgan. Ularga gumanistik tushunchani, psixoanalitik yo'nalishni va topologik psixologiyani ta'riflash odat tusiga kiradi. Yer yuzida insonparvarlik yo'nalishi psixoanalitik nazariyaga zid keladi., lekin bir xil xususiyatlarning mavjudligi ularni birlashtiradi. Psixoanalitik ta'limga asoslangan yondashuvdan farqli o'laroq, uning faoliyatining manbaini toppish uchun ongsiz ravishda repressiyaga tushgan bolaning tajribali taassurotlarini, insoniylikning insoniy nazariyasi keljakka intilish, o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini anglah uchun shaxsiy

harakatni shaxsiy faoliyatning asosiy omili deb hisoblaydi. Insonparvarlik trendining tarafdorlari inson tabiatini yaxshi yoki neytral deb hisoblashgan. Mavzu qaror qabul qilish erkendir, shuning uchun u ular uchun mas’uldir. Shaxsiyatning shakllanishida, ushbu konsepsiyaga binoan, shaxsga, ayniqsa, ota-onas uchun muhim muhitga bo’lgan munosabati muhimdir. Chaqaloqning rivojlanayotgan 1- konsepsiyasi barcha mumkin bo’lgan potensialarga mos keladi., faqt mazmunli kattalardan to’liq qabul va hurmatni olish, ya’ni mutlaqo ijobiy e’tibor. Bu yoki shaxsning turi turmush tarsi odamning ijobiy e’tiborini “sifat” ga bog’liq.

Rogersning insonparvarlik konseptsiyasiga ko’ra, ikkita qarama qarshi shaxs turi mavjud: Nomutanosib shaxs 2) to’liq ishlaydigan shaxs

Insonning insoniyat nazariyasi qisqacha shaxsni, avvalambor, yaxshi, tabiatning ruhiy fazilatlari va ehtiyojlari (masalan, o’z - o’zini rivojlantirish, dunyodagi bilim, o’zlikning ma’nosini tushunish, yaxshilik) ega bo’lishga qaratadi. Shu bilan birga, bunday ehtiyojlarni qoniqarsiz hayot sharoitlari yoki sharoitlar tufayli vaqtinchalik taqiqlash mumkin va bu shaxsning xatti – harakatlarida namoyon bo’lolmaydi. Shaxsni psixologik jihatdan o’rganish o’z tarkibiga ikki asosiy ilmiy masalani hal qilishni oladi: Har bir shaxsni boshqa odamlardan ajratib turadigan individual tuzilishini aniqlash. Bu xulq – atvorni oldindan ko’ra olish imkonini beradi.

Inson shaxs tuzilishining bir necha qismlarini ajratib ko’rsatishni talab etadi. Bu qismlarning yig’indisi inson shaxsini hosil qiladi. Hozirgi zamon chet el psixologiyasida ikkita omil, ya’ni biologik va ijtimoiy omillarning ta’siri bilan tarkib topgan inson shaxsida ikkita asosiy qismlarni ajratuvchi nazariya ko’zga ko’rinarli o’rinni egallamoqda. Inson shaxsi “Endopsixik” (ichki) va “Ekzopsisixik” (tashqi) a’zolariga ega bo’lgan “endopsixika” biologik shart – sharoitlarga bog’liq. “Ekzopsisixika” ijtimoiy omillarga bog’liqdir. Ikkala omil nazariyasining xatoligi shundaki, bu nazariya tarafdarai insoning shaxs bo’lib rivojlanishida faqatngina tabiiy yoki ijtimoiy omilni zarur deb ko’rsatishadi. Ammo shaxs bo’lib rivojlanish jarayonida insonga ijtimoiy va tabiiy omillar zarurdir. Shaxs bu axloqiy hodisa bo’lib, biron maqsad bilan o’zga shaxslarga qaratilgan amallarning mazmuni, markazi va yagonaligidir. Shaxs axloqi uning ma’naviyatidagi tarkibiy qism bo’lish bilan bir paytda shu ma’naviyatning xosilasidir. Axloq inson tafakkuri, aql-zakovatini, butun faoliyatini tizginlab turuvchi hodisadir. Inson aqli qanchalik o’tkir va qudratli bo’lsa ham, uning axloqi tuban bo’lsa, bu kuchli aql va zakovat vayronkor kuchga aylanadi. Vayronkor kuch esa shaxsning atrofidagilariga, jamiyatgagina emas, o’z sohibiga ham katta zarar etkazadi. Sog’lom axloq va uning tarkibidagi umuminsoniy qadriyatlar aql-zakovat qudratini vayronkorlik yo’lidan qaytarib bunyodkorlik tomon yo’naltirib turadi. Shunday ekan zamonaviy shaxs uchun muhim sifatlardan biri axloqiy poklik hisoblanadi.

Ko'plab mutafakkirlar, shu jumladan Z.Freyd fikriga ko'ra, insonda yomonlik qilishga ehtiyoj bor. Agar yomonlik qilishga insonda tabiiy ehtiyoj bo'lsa, unda inson ham vayronkor sifatlar egasi hisoblanadi.

Shaxsga taaluqli bo'lган tng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt ham subyekt bilishlikdir. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshdanoq "mening hayotim", "bizning dunyo" degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit osha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir. Bu muhit kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib qoidalarni qabul qiluvchi subekt bo'lsa, jamiyat ijtimoiy intizom va tartibning madaniyatning mufassal ko'rinishidir.

Zamonaviy jamiyatda esa shaxs kamoloti inson erkinligi bilan bog'liq bo'lib, uning manfaatlar ko'lami qonun bilan chegaralanadi. Demak, bir shaxsning manfaatlari boshlangan joyda ikkinchi bir shaxsning manfaatlari chegaralanadi. Aks holda inson manfaatlari poymol qilinadi. Har qanday shaxs, tashkilot, davlat qonunga bo'ysunishi va rioya qilishi shart. Demokratik, fuqarolik jamiyatida nafaqat qonun ustivorligi, balki hukmronligiga erishish kerak.

Zamonaviy shaxs o'z erkinligini va uning ko'lamenti anglay oladigan, izchil, doimiy ravishda o'zgarishlardan xabardor, izlanuvchi, huquq va burchclarini yaxshi biladigan, bunyodkor, har tomonlama sog'lom bo'lmog'i lozim. Shu bilan bir qatorda mafkuraviy tahdidlardan ozini himoya qilmog'i darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziyev E. G'. Ontagenez psixologiyasi.-T.:Noshir.2010.
2. Maxsudova Z. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. T.:TDPU,2004.
3. Radugina A. A. Pedagogika I psixologiya.M., 2007
4. Internet manbalari.